



O'ZBEKISTONDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Karimova Nilufar Musayevna

Termiz davlat universiteti akademik litseyi direktori

Annotatsiya: Ushbu maqola Respublikamizda ta'lism sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Pedagog, faraz, interfaol metod, pedagogik nazariya, "Aqliy hujum" metodi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lism sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda ta'lism jarayonini loyihalashga yangicha yondashuv bilan boyib bormoqda. Ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lism jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang'ich sinflarda ta'lism sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv -vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir.

Vatanimiz ta'limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalgalashdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta'lism to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta'lismning qadr - qimmati, obro va nufuziga teng darajada unnig ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo'lmozi zarur. Ta'limgagi muvvafaqiyat, aksariyat dadil harakat qiluvchilar tarafida bo'ladi. Dadil harakat, shijoat tufaylidir. Shijoatni esa insonga, o'zbek milliy pedagogikasining mumtoz namoyondasi Abdulla Avloniy takidlaganlaridek maktab ilm- ma'rifat baxsh eta oladi.

Ta'lism jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lism oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'quv tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Hozirgi kunda o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, uning mazmun mohiyatini bilish, uni ta'lism jarayoniga tadbiq qilish va metodikasini yaratish juda muhimdir. Pedagogik kadrlarning innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning metodik tayyorgarligini shakllantirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish mazkur jarayonning samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Davlatimiz rahbari mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur'atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi. Shu maqsadda butun ta'lism tizimi takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta'lism rivojlantirilayotganini maktab saboqlariga puxta zamin bo'lmoqda. Umumiy o'rta ta'lism sifati ilg'or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda. Prezident maktablari, buyuk allomalarimiz



nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, Temurbeklar maktablari kabi zamonaviy va innovatsion ta'lim maskanlari tashkil etildi. Ularda xalqaro tajribalar yo'lga qo'yilganligi kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishidan dalolat beradi. 2019-yil 26- noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, „Zamonaviy maktab” larni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida“gi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2021-yilgacha maktablarning kamida 3 foizi, 2025-yilgacha 20 foizi 2030- yilga qadar esa 50 foizini, „zamonaviy maktab” larga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi. Prezidentimiz shu yil yanvar oyida Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomada maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligini takidladi. Maktablarda moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash, o'quv tarbiya jarayonida xalqaro zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash bo'yicha vazifalarini belgilab berdi. Yurtimizda matematika, kimyo, fizika, va biologiya darslarining 10 foizigina amaliy mashg'ulotga ajratilgan. Rivojlantirilgan davlatlarda bu ko`rsatkich 30-50 foizni tashkil etadi. Shu bois xalq ta'limi vazirligi Axborot texnologiyalarini va kommunikat-siyalarini rivojlantirish vazirligiga o'quv dasturlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, aniq fanlarda amaliy mashgu'lotlar ko`lamini oshirish vazifasi qo'yildi.

O'zbekistonda ta'lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi qadamlar haqida gaplashish mumkin:

1. Modern ta'lim modelini qo'llash: O'zbekistonda ta'lim sohasida yangiliklarni qabul qilish va texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Internet, kompyuterlar, smartfonlar va boshqa yangiliklar orqali o'quvchilar bilimlarini oshirishi mumkin.
2. O'qituvchilarning tayyorlanishi: Ta'limning samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilar professional tayyorlanishi kerak. O'zbekiston universitetlari va pedagogik institutlari talabalarga yangi metodikalar va texnologiyalar bilan tanishtirish kerak.
3. Tarbiyalovchi dasturlar: Ta'limga bir necha tarbiyalovchi dasturlar kiritilishi mumkin. Bu dasturlar orqali o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijodiylilik va ish bilan bog'liq ko'nikmalari oshirilishi hamda ularning ijtimoiy faoliyatiga aktivilik kiritiladi.
4. Hamkorlik: O'zbekiston hukumatining ta'lim sohasida ishlashda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi muhimdir. Ularga moliyalashtiruvchi imtiyozlar berilishi, ulardan o'quvchilarning ta'lim tekshirishlarida yordam so'ralishi va yangi texnologiyalar olib kelishi talab etilishi mumkin.
5. Innovatsiyalar: Ta'limda innovatsiyalarni qo'llash va yangiliklarni qabul qilish talab etiladi. Yangi o'quv usullarini, interaktiv darsliklarni va virtual ta'lim platformalarini rivojlantirish kerak.
6. Infrastruktura va resurslar: Ta'limning samaradorligini oshirish uchun kerakli infrastruktura va resurslarning ta'minlanishi muhimdir. Bu jihatdan, mektepler, universitetlar, laboratoriylar, kutubxonalari va internetga kirish imkoniyatining yaxshi bo'lishi lozim.
7. Barcha qatnashchilar uchun teng imkoniyatlar: O'zbekistonda ta'limning samaradorligini oshirish uchun barcha qatnashchilar uchun teng imkoniyatlar yaratilishi lozim. Bu esa engillikni kengaytiradi va har bir insonning shaxsiy potensialini rivojlantiradi.



Bu muhim qadamalarga amal qilib, O'zbekistonda ta'limning samaradorligini oshirish mumkin. Bu bilan birga mamlakatning ilmiy-pedagogik kadrlarni rivojlantirish, oligohlar va universitetlarga investitsiyalar qilish, ta'lim sohasidagi korruptsiyani kamaytirish va ta'limning sifatini oshirish ham muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.R.Ishmuhammedov, M.Yo'ldoshev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (Ta'lim tizimi hodimlari metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma) – T: 2013.
2. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya.
3. Tolipov O. Umumiy pedagogika Toshkent: 2007-y.
4. Yo'ldashev O. Pedagogika Toshkent: 2008-y.
5. Xasanboeva O. Oila pedagogikasi. Toshkent: 2007-y.
6. Daminov T, Adambekova T. O'yin mashg`ulotlari. Toshkent: 1993-y/